Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeovich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma‘mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG‘LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o‘g‘li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	



YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL

Kilicheva Kamola Muzaffarovna

Toshkent xalqaro universiteti

PhD, mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0001-2597-3373>

kklicheva95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil investitsiyalar samaradorligini baholashda qo'llaniladigan uch asosiy metod – LCOE, CBA va SDGs indikatorlari – tahlil etildi. Tadqiqot natijalari bu metodlarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni turlicha yoritishini, lekin integratsiyalashgan holda qo'llanganda baholashning eng to'liq natijalarini berishini ko'rsatdi. LCOE energiya tannarxini aniqlashda, CBA investitsiya foydasini kompleks baholashda, SDGs esa loyihaning barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasini o'lchashda ustunlikka ega. Ushbu yondashuvlarning birgalikda qo'llanishi yashil loyihalar samaradorligini chuqur va ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, LCOE, CBA, SDGs, energetika samaradorligi, ijtimoiy-iqtisodiy baholash, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article analyzes three key methods used to evaluate the effectiveness of green investments: LCOE, CBA, and SDGs indicators. The findings demonstrate that although these methods assess economic, environmental, and social impacts from different perspectives, their integrated application provides the most comprehensive evaluation. LCOE is effective in determining energy production costs, CBA offers a holistic assessment of economic and ecological benefits, while SDGs indicators measure a project's contribution to sustainable development. The integrated use of these approaches enables a deeper and more objective evaluation of green investment performance.

Key words: green investments, LCOE, CBA, SDGs, energy efficiency, socio-economic assessment, sustainable development.

Аннотация. В данной статье анализируются три основных метода оценки эффективности «зелёных» инвестиций: LCOE, CBA и показатели ЦУР. Результаты исследования показали, что эти методы по-разному охватывают экономические, экологические и социальные воздействия, но при комплексном использовании дают наиболее полную оценку. Преимущество LCOE заключается в определении стоимости энергии, CBA — в комплексной оценке инвестиционной выгоды, а SDG — в измерении вклада проекта в устойчивое развитие. Совместное использование этих подходов позволяет проводить тщательную и объективную оценку эффективности «зелёных» проектов.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, LCOE, CBA, ЦУР, энергоэффективность, социально-экономическая оценка, устойчивое развитие.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish tamoyillari, past uglerodli transformatsiya va ekologik xavfsizlik masalalarining keskin kun tartibiga chiqishi yashil investitsiyalarning ahamiyatini yanada oshirdi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), Parij bitimi va Parijdan keyingi davr uchun qabul qilingan iqlim kelishuvlari dunyo davlatlarini energetika, sanoat, transport va infratuzilma tarmoqlarini uglerod izini kamaytirish orqali modernizatsiya qilishga majbur qilmoqda. Ushbu jarayonda yashil investitsiyalarni moliyalashtirish va ularning iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy samaradorligini aniqlash ustuvor vazifaga aylandi. Yashil investitsiyalarning natijadorligini baholash esa global energetika o'zgarishlari fonida ayniqsa muhim bo'lib, ular davlat siyosati, xususiyl sektor qarorlari, xalqaro moliyaviy hamkorlik va kapital bozorlarining rivojlanish strategiyasiga bevosita ta'sir qiladi.



Shu nuqtai nazardan, yashil investitsiyalarning samaradorligini baholashga doir konseptual va metodologik yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular orasida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan Levelized Cost of Energy (LCOE), Cost-Benefit Analysis (CBA) va SDGs indikatorlari tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. LCOE qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish tannarxini aniq solishtirish imkonini beruvchi iqtisodiy vosita sifatida energetika siyosatining asosiy mezonlaridan biridir. Ayniqsa, quyosh va shamol energetikasida investitsiya samaradorligini aniqlashda LCOE ko'rsatkichining pastligi raqobatbardoshlikni oshiruvchi strategik ustunlik hisoblanadi. CBA usuli esa investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini keng qamrovda baholaydi: ekotizimlarga ta'sir, atrof-muhitga zarar kamayishi, sog'liqni saqlash xarajatlarning qisqarishi, energiya xavfsizligi va ijtimoiy foydalarni qamrab oluvchi integratsiyalashgan yondashuvni taklif etadi. Bu usul yashil loyihalarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy foydasini aniqlashda muhim hisoblanadi.

SDGs indikatorlari esa yashil investitsiyalarni global barqarorlik me'zonlari bilan uyg'unlashtiradi. Xususan, SDG 7 (Arzon va toza energiya), SDG 9 (Sanoat, innovatsiya va infratuzilma), SDG 13 (Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar) hamda SDG 12 (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) kabi maqsadlar orqali yashil loyihalarning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy natijalari o'lchanadi. Bu yondashuv investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy nuqtai nazardan emas, balki keng ijtimoiy barqarorlik mezonlari asosida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Amaliyotda turli davlatlar LCOE, CBA va SDGs indikatorlarini qo'llash orqali energiya loyihalarini qiyosiy baholash, past uglerodli texnologiyalarning tanlov mezonlarini aniqlash, investitsion qarorlarni optimallashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish jarayonlarini boshqarib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda bu metodlar qamrov darajasi yuqori bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, ulardan foydalanish hali to'liq shakllanmagan bo'lib, metodik yondashuvlarni mahalliyashtirish va innovatsion baholash usullarini joriy etish zarurati mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil investitsiyalar samaradorligini baholash metodlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar global miqyosda jadal rivojlanib, konseptual yondashuvlar tobora takomillashib bormoqda. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan yondashuvlarda, avvalo, energiya ishlab chiqarishning to'liq tannarxini aks ettiruvchi Levelized Cost of Energy (LCOE) o'lchovi yetakchi rol o'ynaydi. IEA ekspertlari LCOE usulining asosiy ustunligi sifatida investitsiyaning butun umr davridagi xarajatlarni bir qiymatga keltirish orqali turli energiya texnologiyalarini solishtirish imkonini berishini ta'kidlashadi [1]. Breyer va boshqalar quyosh va shamol energetikasida LCOE ko'rsatkichining jadal pasayishi yashil texnologiyalar raqobatbardoshligini keskin oshirayotganini empirik ma'lumotlar bilan asoslaydi [2]. Lazardning global tahlillari esa LCOE metodining energetika siyosatida qaror qabul qilishning asosiy vositasiga aylanganini, chunki u investitsiya samaradorligi, kapital xarajatlar va ekspluatatsiya xarajatlarini kompleks baholashga imkon berishini ko'rsatadi [3]. Sovacool va Geels esa LCOE usulining afzalliklari bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy omillarni to'liq aks ettirmasligini, shu sababli uni kengaytirilgan baholash metodlari bilan birgalikda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [4].

MDH olimlarining izlanishlari LCOE va CBA metodlarini mahalliy energetika sharoitlariga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, ular, asosan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan. Masalan, Rossiya tadqiqotchilari – Бондаренко ва Сметанин – quyosh energetikasi bo'yicha LCOE tahlilini amalga oshirib, kapital xarajatlar, amortizatsiya va ekspluatatsiya xarajatlarning mintaqaviy farqlarini yoritadi [5]. Qozog'iston olimlari qayta tiklanuvchi energiya investitsiyalarini baholashda CBA metodidan keng foydalanib, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni kiritish natijalar aniqligini oshirishini ta'kidlaydi [6]. Ozarbayjon olimlarining ishlari shamol energetikasida LCOE va energetik xavfsizlik indikatorlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi [7]. Belarus iqtisodchilari esa SDGs indikatorlaridan foydalanish orqali yashil investitsiyalarning ijtimoiy ta'sirini baholash mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lib, ular iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda ekologik samaradorlikni ham integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi [8].

Mahalliy adabiyotlarda yashil investitsiyalarni baholash masalalari asta-sekin takomillashib borayotgan bo'lib, O'zbekiston olimlari energiya loyihalarini iqtisodiy va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan tahlil qilishning zarurligiga e'tibor qaratmoqda. Yo'ldoshev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini LCOE asosida baholash, loyiha tannarxidagi o'zgaruvchan energiya resurslari narxining ta'sirini aniqlash hamda investitsion xavflarni kamaytirish bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan [9]. Karimova esa yashil loyihalarni baholashda CBA va SDGs indikatorlaridan kompleks foydalanish zarurligini ta'kidlab, ekologik ta'sir, energiya tejamkorlik va ijtimoiy barqarorlik natijalarini milliy baholash mezonlariga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar beradi [10].

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar samaradorligini baholashda LCOE iqtisodiy tannarxni aniqlashda, CBA iqtisodiy-ijtimoiy foydani aniqlashda, SDGs esa barqaror rivojlanish mezonlarini baholashda muhim metod sifatida shakllangan. Turli mamlakatlar tajribasi ushbu metodlarni integratsiyalash yaxlit va ishonchli baholash natijalarini ta'minlashini ko'rsatmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda yashil investitsiyalar samaradorligini baholashda uchta asosiy metod – LCOE, CBA va SDGs indikatorlari qo'llanildi. LCOE usuli orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining tannarxi kapital xarajatlar, ekspluatatsiya xarajatlari va energiya ishlab chiqarish hajmi asosida hisoblandi. CBA usuli yordamida investitsiyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foydalari umimlashtirildi. SDGs indikatorlari orqali esa yashil investitsiyalarning barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasi baholandi.

Tadqiqotda qiyosiy va mantiqiy tahlil usullari qo'llanilib, metodlarning afzalliklari, cheklovlari va turli davlatlar amaliyotidagi qo'llanish darajasi solishtirildi. Empirik ma'lumotlar IEA, World Bank, UNDP, OECD hamda mahalliy statistika manbalaridan olindi. Ushbu metodologiya yashil investitsiyalarning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil investitsiyalar samaradorligini baholash bo'yicha qo'llaniladigan metodlar – LCOE, CBA va SDGs indikatorlari – o'z mazmuni, o'lchov sohasi va amaliy natijalari bilan bir-biridan farqlanadi. Ularning taqqoslovchi o'rganilishi yashil investitsiyalarning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini to'liq tahlil qilishga yordam beradi. Quyidagi jadval ushbu metodlarning asosiy jihatlari bo'yicha tizimli taqqoslovni aks ettiradi.

1-jadval. Yashil investitsiyalar samaradorligini baholashda LCOE, CBA va SDGs metodlarining taqqoslovchi tahlili

Mezonlar / Metodlar	LCOE (Levelized Cost of Energy)	CBA (Cost-Benefit Analysis)	SDGs indikatorlari
Asosiy maqsad	Energiyaning to'liq tannarxini baholash	Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foydalarni aniqlash	Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissani o'lchash
Qamrov sohasi	Energiyaning barcha turlari	Barcha investitsiya loyihalari	Milliy va global barqarorlik
Hisoblash jihati	Xarajatlar + ishlab chiqarish hajmi	Foyda-xarajatlar solishtiriladi	17 SDG indikatorlari
Kiritiladigan omillar	Kapital va ekspluatatsiya xarajatlari, texnik umr	Ekologik zarar, ijtimoiy ta'sir, iqtisodiy foyda	Energiya, iqlim, infratuzilma, iste'mol
Natijaning ko'rinishi	USD/kWh ko'rinishida	Pul qiymatidagi umumiy foyda	SDG bo'yicha ball/rejting
Afzalliklari	Aniqligi yuqori, texnologiyalarni solishtiradi	Kompleks yondashuv, keng qamrovli	Global standartlarga mos, strategik mezon
Cheklovlari	Ijtimoiy foydani aks ettirmaydi	Murakkab hisob-kitob, subyektiv baholar	Moliyaviy qiymatga aylantirish qiyin
Qo'llanish darajasi	Energetika siyosatida keng	Infratuzilma va ekologiya loyihalarida	Barqarorlik strategiyalarida
Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyati	Eng maqbul energiya texnologiyasini tanlash	Cheklangan resurslarda optimal investitsiya	SDG bilan mos loyihalarni tanlash

Manba: IEA (2022), World Bank (2023), UNDP (2023) asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, LCOE usuli investitsiya samaradorligini aniqlashda eng aniq va eng ko'p qo'llaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarida (quyosh, shamol, biogaz) LCOE qiymatining yildan-yilga pasayishi ushbu texnologiyalarning an'anaviy yoqilg'iga nisbatan raqobatbardoshligini oshirmoqda. Masalan, global tahlillar ko'ra, 2010–2023 yillar davomida quyosh energetikasining LCOE indeksleri 80–85 foizga, shamol energetikasi tannarxi 40–50 foizga kamaygan. Bu esa investitsiya qarorlarida LCOE metodining strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Biroq, LCOE energiya tannarxiga qaratilgani sababli, u loyihalarning ekologik yoki ijtimoiy natijalarini hisobga olmaydi – bu uning eng asosiy cheklovidir.

CBA (Cost-Benefit Analysis) esa LCOEga nisbatan ancha keng qamrovli bo'lib, investitsiyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foydalarini birgalikda hisoblaydi. CBA usuli orqali nafaqat to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ko'rsatkichlar, balki aholi salomatligining yaxshilanishi, havo ifloslanishining kamayishi, energiya xavfsizligining oshishi, uglerod emissiyasining qisqarishi kabi ko'plab omillardagi foydalar pul birliklariga aylantiriladi.



Shu boisdan, CBA ko'pincha yirik infratuzilma, energetika, ekologik va transport loyihalarida eng maqbul variantni aniqlashda qo'llaniladi. Biroq, ushbu usulning murakkabligi, ma'lumotlar talabining yuqoriligi va ba'zi baholashlarning subyektivligi CBA metodining cheklovlari sifatida qayd etiladi.

SDGs indikatorlari metodining afzalligi shundaki, u loyihalarning faqat iqtisodiy natijalarini emas, balki ularning 17 ta global Barqaror rivojlanish maqsadlari (energiya, iqlim, infratuzilma, ekologiya, sog'liq, ta'lim, mas'uliyatli ishlab chiqarish) bilan bog'liq umumiy ta'sirini tahlil qiladi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihasi SDG 7 (Arzon va toza energiya), SDG 9 (Innovatsiya va infratuzilma), SDG 13 (Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar) maqsadlariga bir vaqtning o'zida xizmat qilishi mumkin. Bu metod strategik darajadagi baholashni ta'minlaydi, lekin natijalarni pul ko'rinishiga bevosita aylantirish qiyin.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu uch metodning har biri ma'lum vazifani bajaradi:

LCOE – energiya real tannarxini aniqlaydi;

CBA – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni aniqlaydi;

SDGs – loyihaning barqaror rivojlanishga qo'shgan strategik hissasini baholaydi.

Shuning uchun ularni integratsiyalashgan tarzda qo'llash – eng to'liq tahlilni beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, ushbu metodlar kombinatsiyasidan foydalanish xususan quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- energiya tannarxini kamaytirish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish;
- ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali sog'liq va ekologik zararlarni qisqartirish;
- investitsiyalarni SDG maqsadlari bilan uyg'unlashtirish orqali xalqaro moliya manbalarini jalb etish;
- energiya xavfsizligini mustahkamlash va energiya importi yukini kamaytirish.

Demak, LCOE–CBA–SDGs metodlarining uyg'un qo'llanishi yashil investitsiyalar samaradorligini ko'p qirrali, chuqur va strategik asoslangan tarzda baholash imkonini beradi. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi investitsion siyosatni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar samaradorligini baholash bo'yicha qo'llaniladigan LCOE, CBA va SDGs indikatorlari investitsiya loyihalarini turli qirralarda tahlil qilish imkonini beruvchi o'zaro to'ldiruvchi metodlardir. LCOE energiya tannarxini aniq va solishtiriladigan shaklda ko'rsatgani uchun qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini tanlash jarayonida muhim o'lchov bo'lib xizmat qiladi. CBA metodining keng qamrovi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni birgalikda baholashga imkon beradi, bu esa resurslari chegaralangan davlatlar uchun investitsiya tanlovining eng maqbul variantini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. SDGs indikatorlari esa loyihalarning barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasini kompleks baholash orqali strategik rejalashtirishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ushbu uch metodning alohida qo'llanishi ma'lum natijalarni bersada, ularning integratsiyalashgan yondashuvi yanada to'liq va ishonchli baholashni ta'minlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun LCOE–CBA–SDGs kombinatsiyasidan foydalanish investitsion qarorlar samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, energiya tannarxini kamaytirish va xalqaro moliya manbalarini samarali jalb etish imkonini beradi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Yashil investitsiyalarni baholashda integratsiyalashgan metodologiyani joriy etish.

LCOE, CBA va SDGs metodlarini birgalikda qo'llash orqali investitsiyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini kompleks baholash tizimini yaratish zarur.

2. Energiya loyihalarida LCOE hisob-kitoblarini majburiy qilish.

Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha yirik loyihalarda LCOE ko'rsatkichlarini hisoblashni normativ talab sifatida belgilash loyihalarning real tannarxini aniq baholash imkonini beradi.

3. CBA metodini milliy sharoitga moslashtirish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik zararlarni baholash, ijtimoiy foydalarni monetizatsiya qilish va energiya xavfsizligi kabi komponentlarni milliy kontekstga mos holda qayta ishlab chiqish lozim.

4. SDGs indikatorlarini milliy investitsiya strategiyalari bilan uyg'unlashtirish.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishda SDG–7, SDG–9, SDG–12 va SDG–13 indikatorlari asosida baholash tizimini joriy etish xalqaro moliya manbalarini jalb qilishni osonlashtiradi va investitsiya jozibadorligini oshiradi.

5. Mahalliy ekspertlar salohiyatini oshirish.

Energetika iqtisodiyoti, ekologik baholash va barqaror rivojlanish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish va sertifikatlash dasturlarini kengaytirish zarur.

6. Yashil loyihalar monitoringi va auditini kuchaytirish.

LCOE, CBA va SDGs indikatorlari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni muntazam monitoring qilish, natijalar asosida strategik qarorlarni qayta ko'rib borish tizimini yaratish lozim.



Umuman olganda, LCOE–CBA–SDGs yondashuvlaridan foydalanish yashil investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va milliy energiya strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu metodlar kombinatsiyasi orqali yashil investitsiyalar nafaqat moliyaviy jihatdan, balki keng ijtimoiy va ekologik mezonlar bo'yicha ham samarali bo'lishi ta'minlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. International Energy Agency (IEA). Projected Costs of Generating Electricity. Paris: IEA Publishing, 2020. 220 p.
2. Breyer Ch., Bogdanov D., Gulagi A. et al. Solar photovoltaics demand for the global energy transition // Energy Strategy Reviews. 2022. Vol. 39. pp. 1–18.
3. Lazard. Lazard's Levelized Cost of Energy Analysis – Version 15.0. New York, 2021. 34 p.
4. Sovacool B.K., Geels F.W. Further reflections on the temporality of energy transitions: A response to critics // Energy Research & Social Science. 2016. Vol. 22. pp. 232–237.
5. Бондаренко В., Сметанин В. Расчёт уровня LCOE для солнечных электростанций в России // Энергетическая политика. 2020. № 4. С. 55–67.
6. Nurlanova N., Ospanova D. Cost–Benefit Analysis of Renewable Energy Investments in Kazakhstan // Kazakh Economic Review. 2021. Vol. 12(2). pp. 45–58.
7. Aliyev T., Mammadov R. Wind energy development and LCOE assessment in Azerbaijan // Caucasus Energy Journal. 2020. Vol. 5(1). pp. 19–29.
8. Сидорова Е., Мельник И. Оценка экологических инвестиций на основе индикаторов ЦУР // Экономика устойчивого развития. 2021. № 2. С. 102–115.
9. Yo'ldoshev O. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini LCOE asosida baholash // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022. № 3. B. 112–128.
10. Karimova N. Yashil loyihalar samaradorligini CBA va SDGs indikatorlari asosida baholash // Moliyaviy tadqiqotlar jurnali. 2023. № 2. B. 45–59.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
